# NAMANGAN VILOYATI
# MAKTABGACHA TA'LIM BOSHQARMASI

**160103 Namangan shahri, IslomKarimovko'chasi, 23 uyTel.: (0-369) 234-24-15, namudo@exat.uz**

2021 yil «29» dekabr                                                                      № 01-01/4-1978 - sonli

**Tuman (shaxar)**
**Maktabgacha ta'lim bo'limi**
**mudirlariga**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 30-iyundagi "Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sog'lom ovqatlantirish tizimini takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 407-sonli Qarori ijrosini ta'minlash maqsadida joriy yilning sentyabr-noyabr oylarida Maktabgacha ta'lim vazirligi qoshidagi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sog'lom ovqatlantirishni Autsorsing usulida tashkil etish komissiyasi tomonidan tanlov o'tkazildi.

Ushbu tanlov komissiyasining 2021-yil 23-sentyabrdagi 7-sonli hamda 2021-yil 29-noyabrdagi 26-sonli bayonnomalarida ko'rsatilgan lotlar g'oliblari bilan belgilangan tartibda 2022-yilning 1-yanvaridan bir yil muddatga shartnomalarni imzolash hamda 2022-yil 4-yanvar holatiga maktabgacha ta'lim tashkilotlarining oshxonalarini "Autsorser" korxona tomonidan faoliyat yuritishlari uchun tayyor holatga keltirilganligini nazoratga olishingiz so'raladi.

**Ilova:** Komissiya yig'ilish bayonnomasining ko'chirmasi.

**Boshqarma boshlig'i** **X.Yusupova**

Ijrochi: A.Qambaraliyev
Tel: 69-234-24-15